

**Jizzax viloyati qo`riqlash boshqarmasi va Zomin tuman xalq ta`limi bo`limi o`rtasidagi qo`riqlash xizmati bo`yicha 44 414 580 so`mlik xizmat ko`rsatish shartnomasi loyihasini xuquqiy ekspertizadan o`tkazish yakuni yuzasidan**

**X U L O S A**

Zomin tuman yuridik xizmat ko`rsatish markazi boshlig`i V.Omonov tomonidan Jizzax viloyati qo`riqlash boshqarmasi va Zomin tuman xalq ta`limi bo`limi o`rtasidagi qo`riqlash xizmati bo`yicha 44 414 580 so`mlik xizmat ko`rsatish shartnomasi loyihasi xuquqiy ekspertizadan o`tkazildi.

Mazkur shartnoma loyihasi qayta tahrirlanib, O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 703-708-moddalari va "Xo`jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to`g`risida"gi qonun talablariga muvofiqlashtirildi.

Shartnoma loyihasida shartnoma predmeti, ko`rsatiladigan xizmatning miqdori, sifati, assortimenti va bahosi, shartnomaning bajarilish muddatlari, hisob-kitob qilish tartibi, taraflarning majburiyatlari, shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda taraflarning javobgarligi, nizolarni hal etish tartibi hamda taraflarning rekvizitlari, shartnoma tuzilgan sana va joyi, tovarlar haqini qonunchilikda belgilanganidan kam bo`lmagan miqdorda oldindan to`lab qo`yish shartlari nazarda tutilgan.

Yuqoridagilarga ko`ra taraflar mazkur shartnoma loyihasini imzolashlari mumkinligi xaqida ijobiy xulosa berildi.

**Zomin tuman yuridik xizmat  
ko`rsatish markazi boshlig`i**

**V.Omonov**

